Aholi soni va tarqalishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy omillar tahlil

Ijtimoiy omillar demografik jarayonlarda hal qilishda ham muhim rol o‘ynaydi va aholining soni, tarkibi hamda taqsimlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ijtimoiy omillarning demografik ko‘rsatkichlarga ta’siri ham chuqur va ko‘p qirrali bo‘lib, turli sohalardagi o‘zgarishlar aholi soniga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston aholisi 2025-yil holatiga ko‘ra 37,5 million kishini tashkil etadi. 2024-yil 693,8 ming chaqaloq tug‘ilgan bo‘lib, bu 2023-yilning shu davridan 3,2% kam. O‘lim holatlari soni 131,7 ming nafarni tashkil etib, bu o‘tgan yilga nisbatan 3,0% ko‘p. Natijada tabiiy o‘sish 562,1 ming nafarni tashkil etdi. Nikoh tuzish holatlari 179,4 ming tani tashkil etib, ajrashish holatlari 34,0 ming tani tashkil etdi. Tashqi migratsiya hajmi 193,5 ming kishini tashkil etib, bu o‘tgan yilga nisbatan 7,5% ko‘p.

1-jadval

O‘zbekiston demografik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2024-yil	2023-yil	O‘zgarish	%
Aholi soni (ming kishi)	36799,8	36024,9	774,9	2,2
Tug‘ilish (nafar)	926422	961962	-35540	-3,7
O‘lim (nafar)	174413	172757	1656	0,96
Tabiiy o‘sish (nafar)	752009	789205	-37196	-4,7
Nikoh (ta)	211776	283808	-72032	-25,4
Ajrashish (ta)	45135	49198	-4063	-8,3
Tashqi migratsiya (kishi)	1775100	1669000	106100	6,4

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.*

Viloyatlar bo‘yicha aholi taqsimoti turlicha bo‘lib, eng ko‘p aholi Samarqand viloyatida yashaydi — 4,159 ming kishi. Farg‘ona viloyatida 3,850 ming kishi, Qashqadaryo viloyatida 3,521 ming kishi, Andijon viloyatida 3,285 ming kishi yashaydi. Eng kam aholi Sirdaryo viloyatida qayd etilgan — 904,9 ming kishi.

Toshkent shahrida 3,2 million kishi yashaydi. Navoiy viloyatida shahar aholisi ulushi eng yuqori bo‘lib, 65,8% ni tashkil etadi.

Ta’lim omilining ham demografik jarayonlarga ta’siri muhim ahamiyatga ega. 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra oliy ta’limli erkaklar o‘rtacha 28,5 yoshida, ayollar esa 25,8 yoshida nikoh tuzishadi. O‘rta maxsus ta’limli erkaklar 26,3 yoshida, ayollar 23,7 yoshida nikoh tuzishadi. Umumiy o‘rta ta’limli erkaklar 24,8 yoshida, ayollar 21,9 yoshida nikoh tuzishadi. Oliy ta’limli oilalarda o‘rtacha 2,1 nafar bola, o‘rta maxsus ta’limli oilalarda 2,4 nafar bola, umumiy o‘rta ta’limli oilalarda 2,8 nafar bola tarbiyalanadi.

2-jadval

Ta’lim darajasi va demografik ko‘rsatkichlar (2024-yil)

Ta’lim darajasi	O‘rtacha nikoh yoshi (erkaklar)	O‘rtacha nikoh yoshi (ayollar)	Oiladagi bolalar soni
Oliy ta’lim	28,5 yosh	25,8 yosh	2,1 nafar
O‘rta maxsus	26,3 yosh	23,7 yosh	2,4 nafar
Umumiy o‘rta	24,8 yosh	21,9 yosh	2,8 nafar

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqildi.*

Yuqori daromadli oilalarda erkaklar o‘rtacha 27,2 yoshida, ayollar 29,1 yoshida birinchi bolani dunyoga keltiradi. O‘rta daromadli oilalarda bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 25,8 va 26,7 yoshni tashkil etadi. Past daromadli oilalarda erkaklar 23,9 yoshida, ayollar 24,5 yoshida birinchi bolani dunyoga keltiradi. Yuqori daromadli oilalarda o‘rtacha 2,0 nafar bola, o‘rta daromadli oilalarda 2,3 nafar bola, past daromadli oilalarda 2,7 nafar bola tarbiyalanadi.

3-jadval

Daromad darajasi va demografik ko‘rsatkichlar (2024-yil)

Daromad darajasi	Nikoh tuzish yoshi	Birinchi bola yoshi	Oiladagi bolalar soni
Yuqori daromad	27,2 yosh	29,1 yosh	2,0 nafar
O‘rta daromad	25,8 yosh	26,7 yosh	2,3 nafar
Past daromad	23,9 yosh	24,5 yosh	2,7 nafar

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqildi.*

O‘zbekistonda shaharlashtirish jarayonlari tezlashib, bu demografik tarkibga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shahar va qishloq aholisi orasidagi farqlar tobora kuchayib bormoqda.

Shaharlashtirish ham demografik jarayonlar tarkibiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda 2024-yil holatiga ko‘ra shahar aholisi 50,7%, qishloq aholisi 49,3% ni tashkil etadi. Shahar aholisi orasida o‘rtacha nikoh tuzish yoshi 26,4 yosh, qishloq aholisida 24,1 yosh. Shahar oilalarida o‘rtacha 2,1 nafar bola, qishloq oilalarida 2,6 nafar bola tarbiyalanadi. Shahar aholisi orasida tug‘ilish koeffitsienti 18,2 promilleni, qishloq aholisida 22,4 promilleni tashkil etadi.

4-jadval

Shahar va qishloq aholisi demografik farqlari (2024-yil)

Ko‘rsatkich	Shahar aholisi	Qishloq aholisi	Farq
Shahar aholisi ulushi	50,7%	49,3%	-
O‘rtacha nikoh yoshi	26,4 yosh	24,1 yosh	+2,3 yosh
Oiladagi bolalar soni	2,1 nafar	2,6 nafar	-0,5 nafar
Tug‘ilish koeffitsienti	18,2‰	22,4‰	-4,2‰
O‘lim koeffitsienti	3,8‰	4,1‰	-0,3‰

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqildi.*

Ta’lim darajasining demografik jarayonlarga ta’siri yildan-yilga ortib bormoqda. O‘zbekistonda ta’lim tizimining rivojlanishi va savodxonlik darajasining oshishi tug‘ilish va nikoh yoshi ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Oliy ta’limli ayollar orasida tug‘ilish darajasi past bo‘lib, ular kasbiy faoliyatga ko‘proq e’tibor bermoqda. Bu holat urbanizatsiya jarayonlari bilan ham bog‘liq.

Iqtisodiy ahvol demografik jarayonlarning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish va daromadlar darajasining oshishi bilan nikoh tuzish yoshining o‘zgarishi kuzatilmoqda.

Yuqori daromadli oilalarda bolalar soni kamroq, lekin ularga sarflanadigan xarajatlar yuqori bo‘ladi. Bu holat demografik o‘tish nazariyasining O‘zbekiston sharoitida amalga oshishini ko‘rsatadi. Shahar aholisi orasida tug‘ilish darajasi past,

nikoh tuzish yoshi yuqori boʻlishi kuzatilmoqda. Bu urbanizatsiya jarayonlarining tabiiy oqibati hisoblanadi.

Oʻzbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari demografik tarkibga sezilarli ta’sir koʻrsatmoqda. 2024-yil 193,5 ming kishi chetga koʻchib ketgan, bu oʻtgan yilga nisbatan 7,5% koʻp. Migratsiya jarayonlari asosan mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklar tomonidan amalga oshirilmoqda, bu oila tuzish va tugʻilish jarayonlariga ta’sir koʻrsatmoqda.

Migratsiya yoʻnalishlarida Rossiya birinchi oʻrinni egallaydi — 127,8 ming kishi (66,0%). Qozogʻistonga 28,5 ming kishi (14,7%), Turkmanistonga 15,6 ming kishi (8,1%), Qirgʻizistonga 12,4 ming kishi (6,4%) koʻchib ketgan. Boshqa davlatlarga 9,2 ming kishi (4,8%) koʻchib ketgan[1].

Mehnat migratsiyasining yana bir muhim jihati shundaki, xalqaro migrantlarning sifati tarkibiy jihatdan oʻzgarib bormoqda, jumladan, ularning ta’lim darajasi oshib, yuqori malakali mutaxassislarning davlatlararo mehnat migratsiyasi oqimlaridagi ishtiroki faollashmoqda. Bunday tendensiya rivojlangan davlatlar uchun ijobiy samara berib, ularning mehnat bozorini yuqori malakali kadrlar bilan boyitsa, emigratsiya markazlari boʻlgan rivojlanayotgan va oʻtish iqtisodiyotiga ega davlatlar uchun esa aksincha, kadrlar oqimi tufayli salbiy ta’sir koʻrsatishi mumkin.

Oʻzbekistonning 2050-yilgacha boʻlgan prognozini ishlab chiqish tadqiqotning muhim vazifalaridan biridir. Chunki mamlakat aholisining mehnat migratsiyasi oqimlarining kelgusi yillardagi istiqbollarini ishlab chiqish, mamlakat miqyosida dasturlarni va strategiyalarni ishlab chiqishda asos boʻlib hizmat qiladi.

Mehnat migratsiyasi jarayonlari u yoki bu mintaqa aholi sonini oʻzgartiribgina qolmay, uning jinsi, yoshi, ma’lumot darajasi, kasbi, millati va h.k. boʻyicha tarkibini ham oʻzgartiradi. Mehnat migratsiyasi jarayonlarining ushbu jihatlarini oʻrganish uchun sanab oʻtilgan tavsiflar boʻyicha koʻchib kelganlar va koʻchib ketganlar tarkibi koʻrsatkichlari qoʻllaniladi. Migrantlar jalb qilish markazlari sanalgan mintaqalarda aholi umumiy soni koʻpayishdan tashqari aholining qarish jarayoni sekinlashadi,

[1] The Migration Situation Report for Uzbekistan (April-June 2024)
https://ru.scribd.com/document/819906033/Uzbekistan-Migration-Situation-Report-April-June-2024

chunki migrantlar orasida yoshlar va mehnatga layoqatli shaxslar koʻpchilikni tashkil qiladi. Aholining chiqib ketuvchi oqimi kuchli boʻlgan mintaqalarda mehnat migratsiyasi teskari samara beradi. Qochqinlar va majburiy koʻchib ketganlar uchun oʻziga xos demografik va ijtimoiy tarkib xosdir[2].

Mehnat migratsiyasi intensivligi mehnat migratsiyasi koeffitsientlari bilan oʻlchanib, ulardan tahlilda foydalanish aholi tabiiy harakati koeffitsientlaridan jiddiy farq qiladi. Tugʻilish, oʻlim, nikoh va ajralish kabi demografik hodisalar bitta belgilangan aholi yigʻindisi doirasida roʻy beradi. Mehnat migratsiyasi esa doimo bir vaqtning oʻzida ikki xil hududiy aholi jamiyati bilan bogʻliq boʻladi.

Mehnat migratsiyasining intensivlik koʻrsatkichlari har 1000 kishiga hisoblanadigan koʻchib kelish koeffitsienti (K_I), koʻchib ketish koeffitsienti (K_E), mehnat migratsiyasi aylanmasi (K_{MT}) va mexanik oʻsish (K_{SM}) koʻrsatkichlari hisoblanadi.

$$K_I = \frac{I}{\overline{P}} \cdot 1000;\ K_E = \frac{E}{\overline{P}} \cdot 1000;\ K_{MT} = \frac{A+D}{\overline{P}} \cdot 1000;\ K_{SM} = \frac{I-E}{\overline{P}} \cdot 1000,$$

Bu yerda: I – davr mobaynidan koʻchib kelganlar soni (*immigratsion*);

E – davr mobaynidan koʻchib ketganlar soni (*emigratsion*).

Mehnat migratsiyasi samaradorligini (K_E) baholash uchun migratsion oʻsishining mehnat migratsiyasi hajmiga nisbati aniqlanadi:

$$K_э = \frac{A-D}{A+D} \cdot 1000 = \frac{S_M}{MT},$$

Bu yerda: S_M – mehnat migratsiyasi saldosi;

MT – mehnat migratsiyasi aylanmasi (koʻchib kelganlar va koʻchib ketganlar yigʻindisi).

Yuqorida keltirilgan mehnat migratsiyasi tavsiflari mintaqa va mamlakat miqyosda mehnat migratsiyasi jarayonlarini joriy tahlil qilish maqsadida davlat statistikasida foydalaniladigan koʻrsatkichlar umum e'tirof etilgan standart tizimini tashkil qiladi. Bu koʻrsatkichlar shuningdek, bir qator maxsus hisob-kitoblarda, modellashtirish va demografik prognoz qilishda ham qoʻllaniladi.

[2] Thomas Salzmann, Barry Edmonston, James Raymer Demographic Aspects of Migration. — Springer Science & Business Media, 2010. 350 p.

Aholining xalqaro mehnat migratsiyasi koʻrsatkichlar tizimi quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

1. Emigratsiya va reemigratsiya, immigratsiya va reimmigratsiya, sof mehnat migratsiyasi (saldo) yillik hajmining mutlaq koʻrsatkichlari.

2. Emigrantlar va immigrantlarni taqsimlashning mutlaq koʻrsatkichlari hamda mamlakatlar va dunyo mintaqalari boʻyicha, oʻz mamlakatining ma'muriy-hududiy boʻlinmalari boʻyicha tashqi mehnat migratsiyasi saldosi.

3. Mamlakat aholi soni tarkibida boshqa davlatlar fuqarolarining ulushi va soni, oʻz mamlakatining mehnat bilan band aholisi tarkibida chet elliklar ulushi.

4. Emigrantlar va immigrantlarning jinsi, yoshi, millati, ma'lumot darajasi va boshqa tavsiflari boʻyicha tarkibi.

5. Avvalgi yashash joyi boʻyicha tavsiflari – harbiy toʻqnashuv hududlari,ekologik va texnogen kulfat roʻy bergan hududlar, barqaror tabiiy ofat hududlari boʻyicha qochqinlar va majburiy koʻchib kelganlar soni va ulushi.

Tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasini tavsiflaydigan koʻrsatkichlar alohida guruhni tashkil etadi, ularni bilvosita hisob-kitoblar orqali aniqlash mumkin. Noqonuniy mehnat migratsiyasini tavsiflaydigan koʻrsatkichlar alohida guruhni tashkil etadi, ularni faqat bilvosita hisob-kitoblar, ekspertlar baholari va tanlanma tadqiqotlar oʻtkazish yoʻli bilan aniqlash mumkin. Asosiy baholash koʻrsatkichlari quyidagilar hisoblanadi: mamlakatga yil davomida kirib keladigan noqonuniy migrantlar oqimi va muayyan sanada mamlakat hududida boʻlgan noqonuniy migrantlar soni.

Noqonuniy mehnat migratsiyasi miqyosini aniqlashda biror idoraga tegishli statistika ma'lumotlari foydalaniladi:

1) deportatsiya – mamlakat hududidan noqonuniy migrantlarni majburiy chiqarib yuborish haqida;

2) chegarani noqonuniy kesib oʻtishda chegarada qoʻlga olingan yoki hibsga olingan shaxslar soni haqida;

3) chegarada mamlakat hududiga kiritishni rad qilish haqida.

Ushbu ko‘rsatkichlar asosida intensivlik koeffitsientlari – o‘rtacha aholi yillik sonida har 1000 kishiga hisoblaganda mos keluvchi migrantlar guruhiga mansub shaxslar soni hisoblab chiqiladi.

Mehnat migratsiyasi ko‘rsatkichlari ixtisoslashgan tizimiga misol tariqasida V.Modenov va A.Nosov tomonidan taklif etilgan, davlatlarning mehnat migratsiyasi jalb etuvchanligini baholash uchun mo‘ljallangan raqamli indikatorlar majmui ko‘rib chiqilishi mumkin. Ushbu tizimning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. Mehnat migratsiyasi jalb etuvchanlik indeksi – jahon YaIMda davlat ulushining yer shari aholisi umumiy sonida uning aholisi ulushiga nisbati. Bu ko‘rsatkich mamlakatning iqtisodiy farovonlik darajasining nisbiy bahosini beradi.

2. Antropogen yuklama indeksi – davlat aholisi real zichligining er sharida iqtisodiy jihatdan o‘zlashtirilgan maydonlarga nisbatan jami dunyo aholisi eng so‘nggi o‘rtacha zichligiga nisbati. Iqtisodiy jihatdan o‘zlashtirilgan hududlarga nisbatan aholining real zichligi aholi sonining xo‘jalik faoliyati uchun o‘zlashtirilgan hududlarga nisbati hisoblanadi.

3. Hududning maksimal populyatsion sig‘imi – xo‘jalik faoliyati uchun o‘zlashtirilgan hududlarning populyatsion hal qilinish koeffitsientiga ko‘paytmasi.

Mazkur uslubiyatning qo‘llanishi munozaralarga olib kelishi mumkin ekanligiga qaramay, u muayyan mamlakatlar sharoitlarida yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan, ya’ni xavfsiz immehnat migratsiyasi chegaralarini baholash ob’ektiv miqdoriy mezonlarini izlab topishga misollardan biri sifatida e’tiborga loyiq. Bunday modellar davlatning umumiy mehnat migratsiyasi strategiyasini ishlab chiqish, mehnat migratsiyasini kvotalash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi, joriy paytda va istiqbolda dunyo demografik resurslarini qayta taqsimlash jarayonlarini takomillashtirishda mo‘ljal bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Mamlakatda mehnat migratsiyasi jarayonlari jaddaligini baxolash va uning sur’atini aniqlashda mehnat migratsiyasi koeffisenti ko‘rsatkichlaridan xam foydalaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlarga kelish koffitsenti, ketish koffitsienti va mehnat migratsiyasi sal’dosi koffitsenti kirib, ular xar ming kishiga nisbatan xisoblanadi:

Aholining kelish jadalligi koeffitsienti:

$$\mathbf{Kk = Ks / Ao‘s * 1000} \qquad \mathbf{(11)}$$

Aholining jo‘nab ketish jadalligi koeffitsienti:

$$\mathbf{Kj = Js / Ao‘s * 1000} \qquad \mathbf{(12)}$$

Mehnat migratsiyasi qoldig‘i yoki aholining mehnat migratsiyasi o‘sishi koeffitsienti:

$$\mathbf{Kms = Kk – Kj} \qquad \mathbf{(13)}$$

5-jadval

O‘zbekiston Respublikasining 2010-2024 yillar oralig‘ida tashqi mehnat migratsiyasi ko‘rsatkichi

(ming kishi)[3]

Hududlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Respublikasi	289,2	298,4	330,1	338,3	873,6	1 001,3	1 145,3	1 333,7	2 384,8	2 460,7	1 838,2	1 456,8	1 562,9	1 669,0	1775,1
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	19,6	19,2	21,2	21,8	31,6	36	34,7	33,6	144,6	157,4	117,8	109,9	118,1	126,3	134,5
viloyatlar															
Andijon	40,7	42,1	46,5	47,7	126,7	144,5	155,5	192,9	305,2	299,8	225,5	204,4	219,2	234,0	248,8
Buxoro	37,5	35,2	39	39,9	61,1	66,4	77,1	108,2	133,2	155,6	116,9	72,0	75,2	78,3	81,5
Jizzax	2,4	10,8	12	12,3	28	31,6	30,1	38	73,8	81,4	59,7	36,3	39,4	42,5	45,6
Qashqadaryo	21,2	26	28,8	29,5	99,2	100,1	98,3	96,5	177,9	212,5	162,1	113,6	122,0	130,3	138,7
Navoiy	3,7	9,1	10	10,3	15,6	14,4	15,1	17,2	37,7	40,9	28,1	21,1	22,7	24,3	25,9
Namangan	24,4	28,8	31,8	32,6	82,7	129,9	158,2	124,4	200,7	218,3	164,2	71,3	75,6	79,8	84,1
Samarqand	36,2	33,4	37	37,9	159,9	143,3	147,5	186,5	341,2	323	242,0	217,4	233,9	250,4	266,9
Surxandaryo	19,4	25,8	28,6	29,3	82,5	74,1	75,8	72,5	163,4	196,8	146,0	85,2	91,2	97,1	103,1
Sirdaryo	4,5	3,8	4,2	4,3	17,4	13	33,2	39	68,9	76,1	51,8	28,7	30,9	33,1	35,3
Toshkent	10,2	7,7	8,5	8,7	34,6	34,3	75,4	106,7	178,4	122,7	91,9	133,0	144,2	155,4	166,5
Farg‘ona	28,2	23,8	26,4	27	75,2	121,9	140,9	168,2	283,7	297,4	225,6	150,2	161,3	172,4	183,5
Xorazm	27,5	24,8	27,5	28,1	37,8	70,5	83,1	68,6	154,3	169,8	127,8	119,9	128,3	136,7	145,2
Toshkent sh.	13,7	7,9	8,6	8,9	21,3	21,3	20,4	81,4	121,8	109	78,8	93,7	100,9	108,2	115,5

Manba: *O‘zbekiton Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi*

[3] O‘zbekiton Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

11-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki mehnat migratsiyasi ko‘rsatkichi 2019-yilga kelib eng yuqori ko‘rsatkichni ko‘rsatmoqda va 2021-yilga kelib esa kamayish va 2022-yildan boshlab o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

6-jadval

Mehnat migratsiyasini ekstropolyatsiya usulidagi prognozi

(ming kishi)[4]

Hududlar	**2025**	**2026**	**2027**	**2028**	**2029**	**2030**
O‘zbekiston Respublikasi	**1881,2**	**1987,3**	**2093,4**	**2199,5**	**2305,6**	**2411,7**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	142,7	150,9	159,1	167,3	175,5	183,7
viloyatlar						
Andijon	263,6	278,4	293,2	308,0	322,8	337,6
Buxoro	84,6	87,7	90,9	94,0	97,2	100,3
Jizzax	48,6	51,7	54,8	57,9	61,0	64,0
Qashqadaryo	147,1	155,5	163,9	172,3	180,7	189,1
Navoiy	27,4	29,0	30,6	32,2	33,8	35,4
Namangan	88,3	92,6	96,9	101,1	105,4	109,7
Samarqand	283,3	299,8	316,3	332,8	349,2	365,7
Surxandaryo	109,1	115,1	121,1	127,0	133,0	139,0
Sirdaryo	37,5	39,7	41,9	44,1	46,3	48,5
Toshkent	177,7	188,9	200,0	211,2	222,4	233,5
Farg‘ona	194,6	205,7	216,7	227,8	238,9	250,0
Xorazm	153,6	162,0	170,4	178,8	187,2	195,6
Toshkent sh.	122,8	130,0	137,3	144,6	151,8	159,1

Manba: *O‘zbekiton Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Aholi prognozi ishlab chiqishda ekstropolyatsiya usuli eng sodda usullardan biridir. Unda nisbatan qisqa muddatda va kichikroq hududlarda prognoz ishlab chiqish samarali hisoblanadi. Ekstrapolyatsiya usuli o‘tgan va ayni paytdagi demografik tendensiyaning kelajakdagi davomidir. U quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi:

[4] Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o‘g‘li “Mehnat bozorida aholining munosib mehnat migratsiya jarayonlarini transformatsiyalash”, Avtoreferat, 12.05.2025 https://library.ziyonet.uz/book/137887

$$Pt = Po + \Delta \cdot t \qquad (14)$$

Bu yerda, Rt va Po — yil yakuni va boshidagi aholi soni;

Δ — aholining o‘rtacha yillik ko‘payishi yoki kamayishi;

t — prognoz ishlab chiqilayotgan davr.

12-jadval ma’lumotlari asosida ekstropolyatsiya usuli yordamida aholining mehnat migratsiyasi jarayonlarni prognozini tuzamiz. O‘zbekiston aholisi yillik o‘ratacha o‘sish sur’ati **981,9** ming kishini tashkil etmoqda 2030-yilga kelib aholi mehnat migratsiyasi 2 411 700 kishi bo‘lishi kutilmoqda.

Shu bilan birga ijtimoiy sohalardan eng muhim yo‘naloishlardan biri sog‘liqni saqlash tizimini ham o‘rni nihoyatta katta. Sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishi o‘lim darajasining pasayishi va umr ko‘rish davomiyligining oshishiga olib keladi. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi islohatlari demografik ko‘rsatkichlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

7-jadval

Sog‘liqni saqlash ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2020-yil	2024-yil	O‘zgarish
Chaqaloq o‘limi (1000 tug‘ilishda)	12,8	9,2	-3,6
Onalar o‘limi (100,000 tug‘ilishda)	17,4	12,1	-5,3
O‘rtacha umr ko‘rish (erkaklar)	71,2 yosh	72,8 yosh	+1,6 yosh
O‘rtacha umr ko‘rish (ayollar)	76,8 yosh	78,1 yosh	+1,3 yosh

Manba: *O‘zbekiton Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Sog‘liqni saqlash ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi tabiiy o‘sish darajasini oshirmoqda. Sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishi demografik ko‘rsatkichlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini yuqoridagi jadval asosida ham bilib olish mumkin. 2024-yilda chaqaloq o‘limi 1000 tug‘ilishda 9,2 nafarni tashkil etib, bu 2020-yilga nisbatan 3,6 nafarga kamaygan. Onalar o‘limi 100,000 tug‘ilishda 12,1 nafarni tashkil etib, bu 2020-yilga nisbatan 5,3 nafarga kamaygan. Erkaklar o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 72,8 yoshga, ayollar 78,1 yoshga yetgan bo‘lib, bu 2020-yilga nisbatan

mos ravishda 1,6 va 1,3 yoshga oshgan. Bu esa mamlakatda aholiningtakror barpo boʻlishi va reproduktiv tomondan koʻpayishi va rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi

Ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishi demografik jarayonlarda ham ahamiyatli. Chunki aholini ijtimoiy tomondan himoyalash mamlakat fuqarolarining ijtimoiy holatini yaxshilaydi. Oʻzbekistonda 1,2 million koʻp bolali oila mavjud boʻlib, ular ijtimoiy yordamlar oladi. 487,5 ming nafaqaxoʻr oila, 156,3 ming yolgʻiz ona va 89 ta bolalar uyi faoliyat yuritadi. Koʻp bolali oilalarga berilayotgan ijtimoiy yordamlar tugʻilish darajasini oshirishga yordam bermoqda.

Madaniy va diniy omillar ham demografik jarayonlarga taʼsir koʻrsatmoqda. Oʻzbekistonda anʼanaviy oila qadrlari hali ham kuchli boʻlib, bu koʻp bolali oilalar tashkil etishga ragʻbatlantirmoqda. Diniy eʼtiqod nikoh mustahkamligiga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. Modernizatsiya jarayonlari kech nikoh tuzishga olib kelmoqda. Globalizatsiya jarayonlari individuallik his-tuygʻularini kuchaytirmoqda.

Oʻzbekistonda yoshlar orasida taʼlim olish istagi kuchaymoqda. 2024-yilda oliy taʼlim muassasalarida 450 ming talaba, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida 280 ming oʻquvchi tahsil olmoqda. Taʼlim darajasining oshishi nikoh tuzish yoshining kechikishi va oiladagi bolalar sonining kamayishiga olib kelmoqda.

Gender tengsizligi masalalari ham demografik jarayonlarga taʼsir koʻrsatmoqda. Ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki 48,2% ni tashkil etadi. Ayollar orasida taʼlim darajasining oshishi ularning kasbiy faoliyatga koʻproq eʼtibor berishiga olib kelmoqda. Bu holat tugʻilish darajasining pasayishiga sabab boʻladi.

Psixologik omillar ham demografik jarayonlarga taʼsir koʻrsatmoqda. Zamonaviy hayot tarzining murakkabligi, stress darajasining oshishi va individual ehtiyojlarning oʻzgarishi oila rejalashtirish qarorlariga taʼsir koʻrsatmoqda. Yoshlar orasida kasbiy muvaffaqiyat qozonish va shaxsiy rivojlanish istagining kuchayishi oila tashkil etish va bolali boʻlish masalalarini kechiktirishga olib kelmoqda.

Texnologik omillar ham demografik jarayonlarga taʼsir koʻrsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy aloqa vositalarining keng tarqalishi yoshlar orasida yangi munosabatlar shaklini yaratmoqda. Onlayn tanishuv va muloqot imkoniyatlari anʼanaviy oila tashkil etish jarayonlarini oʻzgartirib yuboradi.

O‘zbekistonda ijtimoiy omillarning demografik jarayonlarga ta’siri chuqur va ko‘p qirrali. 2024-yil statistik ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim darajasining oshishi, shaharlashtirish jarayonlari va iqtisodiy o‘zgarishlar demografik ko‘rsatkichlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tug‘ilish darajasining pasayishi va nikoh tuzish yoshining oshishi zamonaviy demografik o‘tish jarayonlarining ko‘rinishlaridan biridir. Biroq, an’anaviy oila qadrlari va davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari bu jarayonlarni muvozanatli holda saqlashga yordam berib kelmoqda.

Xulosa va takliflar

Demografik muammolarni hal qilish uchun davlatlar turli xil siyosatlar ishlab chiqishi va amalga oshirishi lozim. Oilaviy siyosat doirasida bolalar uchun nafaqalar, bepul yoki arzon bolalar bog‘chalari, onalik ta’tilini uzaytirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu choralar oilalarning iqtisodiy yukini yengillashtirib, tug‘ilish darajasini oshirishga yordam beradi.

Aholi qariganining oqibatlarini yumshatish uchun pensiya tizimlarida islohotlar o‘tkazilishi lozim. Pensiya yoshining bosqichma-bosqich oshirilishi, xususiy pensiya jamg‘armalarining rivojlantirilishi va keksalar uchun ijtimoiy xizmatlar tizimining kengaytirilishi kabi choralar amalga oshirish lozim.

Demografik o‘zgarishlarni hisobga olgan holda ijtimoiy infratuzilmaning rivojlantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiyot xizmatlari tizimini zamonaviylashtirish, ta’lim sifatini oshirish va ijtimoiy xizmatlar spektrini kengaytirish orqali aholi turmush sifatini yaxshilash mumkin.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirish, masofaviy tibbiy xizmatlar ko‘rsatish va onlayn ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish zamonaviy demografik muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Demografik o‘zgarishlar va davlat siyosati o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy davlat boshqaruvining eng muhim masalalaridan biridir. Muvaffaqiyatli demografik siyosat keng qamrovli yondashuv, turli sohalar o‘rtasida muvofiqlashtirish va uzoq muddatli rejalashtirishni talab qiladi. Bu jarayonda jamiyatning barcha qatlamlarining

manfaatlari hisobga olinishi va barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unligi ta’minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. 2023-yildagi "Progress of the World’s Women 2023-2024: The Gender Equality Opportunity" https://www.unwomen.org/en/digital-library
2. Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o‘g‘li “Mehnat bozorida aholining munosib mehnat migratsiya jarayonlarini transformatsiyalash”, Avtoreferat, 12.05.2025 https://library.ziyonet.uz/book/137887 \
3. Thomas Salzmann, Barry Edmonston, James Raymer Demographic Aspects of Migration. — Springer Science & Business Media, 2010. 350 p.
4. https://www.who.int/uzbekistan
5. Schultz, T. Paul (2007). “Population Policies, Fertility, Women’s Human Capital, and Child Quality”
6. https://www.theglobaleconomy.com/uzbekistan/drinking_water_rural/
7. https://tashkenttimes.uz/national/8988-uzbekistan-could-slip-to-water-scarcity-red-zone-by-2050?